Volume 2, Issue 2,2024

STUDYING COMBINATIVES OF VERBS IN ENGLISH LANGUAGE

Shavkatov Sherzod Shavkatovich
Navoiy davlat pedagogika instituti ingliz tili amaliy kursu kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: So‘z tadqiqi amalga oshirilar ekan, uning boshqa so‘zlar bilin birikishi ham bevosita o‘rganilishi talab etiladi. Shu tufayli ham so‘zlarning birikishi masalasi dunyo tilshunoslarini har doim qiziqtirib kelgan. Jumladan, fe’l birikuvi, uning boshqa so‘zlarni biriktirish imkoniyati tadqiqi valentlik haqidagi nazariyaning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy tilshunoslikda fe’lning har bir turkum kesimidagi birikuvchilarini o‘rganish bu turkumning xususiyatlarini to‘la ochish imkonini beradi. Fe’lni boshqa bir fe’lga biriktiruvchi vositalarning o‘rganilish tarixi ham tilshunoslikda uzoq tarixga ega.
Kalit so‘zlar: predlog, fe’l, modal fe’l, iboraviy fe’l, valentlik

Аннотация: Пока проводится изучение слова, требуется непосредственно изучать его сочетание с другими словами. В связи с этим проблема сочетания слов всегда интересовала мировых лингвистов. В частности, изучение спряжения глаголов и их способности связывать другие слова привело к формированию и развитию теории валентности. В современном языкознании изучение спряжений глаголов каждой части группы позволяет полностью раскрыть особенности этой группы. История изучения средств, связывающих глагол с другим глаголом, также имеет в лингвистике давнюю историю.
Ключевые слова: предлог, глагол, модальный глагол, фразовый глагол, валентность.

Annation: While a word is being studied, it is required to directly study its combination with other words. In this regard, the problem of combining words has always been of interest to world linguists. In particular, the study of verb conjugation and its ability to bind other words led to the formation and development of valence theory. In modern linguistics, the study of verb conjugations for each part of a group allows us to fully reveal the characteristics of this group. The history of the study of means connecting a verb with another verb also has a long history in linguistics.
Key words: preposition, verb, modal verb, phrasal verb, valency.

So‘z o‘z xususiyatlarini muayyan qurshovda, ya’ni boshqa so‘zlar bilan birikkandagina to‘la namoyon qiladi. Bu esa tilshunoslikda so‘z tadqiqi uning birikuvchanlik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga amalga oshirilishi kerakligini ko‘rsatadi. Shu tufayli o‘tgan asr boshlarida shakllangan va taraqqiy etishni boshlagan sintagmatika, valentlik nazariyasi kabi fan tarmoqlariga bo‘lgan qiziqish aslo kamaygani yo‘q. Valentlik nazariyasi tadqiqi, avvalo, fe’l so‘z turkumi asosida amalga oshirilgan. Zamonaviy tilshunoslikda fe’lning boshqa bir fe’lga birikishi masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, bunday birikuvni ta’minlovchi vositalarning o‘rganilishi ham uzoq yillik tarixga ega.

Predloglar ingliz tilida fe’lni fe’lga bog‘lovchi vosita sifatida jonli nutqda qo‘llanadi. Predloglar ingliz tilida ot va olmoshlarning boshqa so‘zlar bilan munosabatini ko‘rsatuvchi birliklar hisoblanadi. Ular gapda mustaqil sintaktik vazifa bajarmaganligi, lug‘aviy ma’noga ega emasligi tufayli so‘z turkumi sifatida baholanmaydi. “Ingliz tilida kelishik shakllarining deyarli mavjud emasligi predloglarning nutqiy ahamiyatini, ya’ni so‘zlarni bog‘lashdagi ahamiyati oshishiga sabab bo‘lgan” [1:311]. Ta’kidlanganidek, predloglar ot (ba’zan olmosh)ning boshqa so‘zga birikishida muhim ahamiyatga ega. Shunday bo‘lsa-da, fe’lning ot belgilariga ega bo‘lgan gerundiy shakli predloglar yordamida boshqa bir fe’lga birikishi mumkin. Gerundiy shakli bunda predlog yordamida fe’lning fe’lga birikishiga ko‘maklashadi. Boshqacha aytganda, predlog yordamida bir

fe’l boshqa fe’lga birikkanda gerundiy predlog bilan hamkorlikda biriktiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Masalan, *I am interested in learning new languages (Men yangi tillarni o‘rganishga qiziqaman), He apologized for being late* (U kech qolgani uchun uzr so‘radi) kabi gaplarda gerundiy shaklidagi fe’llarning predloglar ko‘magida boshqa fe’lga birikishini kuzatishimiz mumkin. Shu o‘rinda predloglarning so‘zlarni bog‘lash bilan birga ular orasida turli ma’no munosabatlarni ifodalashda ishtirok etishini ham ta’kidlash lozim. Predloglar ingliz tilida sintaktik munosabat ifodalovchi vositalar sifatida faol tadqiq qilingan [2,3,4,5,6]. Bu tadqiqotlarda predloglarning ot va olmoshlarni, shuningdek, fe’lning otga xoslangan shakli hisoblanadigan gerundiyning boshqa so‘zlarga bog‘lash xususiyati, bu birikuv natijasida qanday semantik munosabatlar ifodalanishi, predloglarning boshqa tillarga tarjimalaridagi o‘ziga xosliklar kabilar o‘rganilgan.

Ingliz tilida “iboraviy fe’l” (ba’zi adabiyotlarda frazaviy fe’llar, atamaviy fe’llar kabi atamalardan ham foydalaniladi, ammo biz tadqiqotimizda “iboraviy fe’l” atamasidan foydalanishni ma’qul topdik) (Phrasal Verbs) atamasi mavjud. Bunday til birliklari odatda [fe’l + predlog yoki ravish] qolipida shakllanadi. Iboraviy fe’llarni yaxlit ma’no ifodalovchi birliklar sifatida qarash maqsadga muvofiq. Bunda iboraviy fe’lni hosil qiluvchi fe’l va predlogning (bunda predlogning birikmaga qo‘shishi mumkin bo‘lgan ma’nosi nazarda tutilmoqda) alohida ma’nosi iboraviy fe’l ma’nosidan farqli bo‘ladi. Mazkur birlikni ifodalovchi atamada qo‘llangan “ibora” so‘zini fe’l va predlogning bosh ma’nosidan boshqa ma’no ifodalashi bilan izohlash mumkin. Zero, iborani hosil qiluvchi so‘zlar ham o‘z ma’nosini yo‘qotgan, umumiy ustama ko‘chma ma’no ifodalashi tilshunoslar tomonidan qayd etiladi. Iborani hosil qiluvchi so‘zlar ko‘chma ma’no ifodalaganligi uchun ham uning ma’nosi obrazli bo‘ladi, so‘zning ma’nosidan ta’sirliligi bilan ajralib turadi. Fikrimizni quyidagi iqtibos ham dalillaydi: “Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so‘zdan tashkil topadi. Biroq uning ma’nosi tashkil etuvchi ma’nolarning oddiy yig‘indisi emas. Frazeologizmning ma’nosi tashkil etuvchi so‘z to‘la yoki qisman ko‘chma ma’noda ishlatilishi natijasida hosil bo‘ladi” [7:132]. Ingliz tilidagi iboraviy fe’llardan biri misolida ta’kidlanganlarning “ishlashi”ni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *keep on* iboraviy fe’li o‘zbek tilida “davom etmoq” ma’nosini bildiradi. Lekin bu iboraviy fe’lni hosil qiluvchi *keep* so‘zi alohida olinganda “ushlamoq”, “saqlamoq”, *on* predlogi esa “ustida” ma’nolarini ifodalaydi. Tabiiyki, bu ma’nolar “davom etmoq” ma’nosidan ancha yiroq. Ammo ular birikmo holida kelganda shunday ma’no ifodalashi uni “iboraviy fe’l” deb nomlashga asos bo‘lgan. Iboraviy fe’llar tarkibida predloglarning mavjudligi, qolaversa, o‘rni bilan otga xos belgilarga egaligi tufayli boshqa fe’lga birikishi mumkin bo‘ladi. Masalan, *Keep on running, you are almost at the finish line*(Yugurishda davom eting, siz deyarli marraga yaqinlashdingiz)*! I will keep on studying until I understand this concept* (Men bu ma’lumotni to‘liq tushunmaguncha o‘qishda davom etdim) kabi gaplarda iboraviy fe’lning boshqa fe’lga birikishini kuzatishimiz mumkin. Ingliz tilida iboraviy fe’llar til o‘rganuvchilarga noqulaylik tug‘dirishi va bu muammoning yechimini taklif qilish nuqtayi nazaridan, shuningdek, iboraga (idioma) yaqin birliklar sifatida unga o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga qaratilgan nazariyalarni ishlab chiqish maqsadida atroflicha tadqiq qilingan [8,9,10,11]. Albatta, iboraviy fe’llar nutqqa tayyor olib kirilishi, umumiy ko‘chma ma’no ifodalashi bilan iboralar bilan o‘xshash. Fe’l so‘z turkumining ishtiroki majburiyligi, shuningdek, a’zolardan biri ba’zan mustaqil so‘z turkumiga mansub bo‘lmasligi (fe’l + predlog qolipida) tufayli bunday birikmalar iboraviy fe’llar deb nomlanadi.

Ingliz tilida ikki fe’lning birikishida bir fe’l o‘z mustaqil ma’nosini yo‘qotgan o‘rinlar ham kuzatiladi. Bunda nomustaqil fe’l sifatida modal fe’llar birikmaning bir a’zosi sifatida ishtirok etadi. Ma’lumki, modal fe’llar (*may (might), can (could), must, need* kabi) modal ma’noda yakka holda qo‘llanmaydi. Modal fe’llar fe’lning infinitiv shakli bilan birikma holda matnlarda uchraydi. Boshqacha aytganda, modal fe’llar infinitiv bilan birga murakkab fe’l kesim vazifasini bajaradi. Masalan, *I can speak in English* (Men inglizcha gaplasha olaman). Modal fe’llar asosiy fe’lga

qodirlik, shartlilik, lozimlik kabi ma’nolarni qo‘shuvchi birliklar sifatida ingliz tilshunosligida ham, qiyosiy tahlil maqsadida boshqa xalqlar tilshunosligida ham chuqur o‘rganilgan [12,13,14,15]. Modal fe’llar o‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’llarga gap tarkibida bajaradigan vazifasiga ko‘ra juda o‘xshaydi. Chunki o‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’llar ham yetakchi fe’llar bilan birikib ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini hosil qiladi. Ko‘makchi fe’l yetakchi fe’lning ma’nosiga qodirlik, davomiylik, to‘liq yakunlanganlik, to‘satdan sodir bo‘lganlik kabi ma’nolarni qo‘shadi. “Ko‘makchi fe’l o‘z mustaqil ma’nolarini yo‘qotgan, ravishdoshning -(i)b, -a(y) shakllariga qo‘shilib, asosdan anglashilgan harakat-holatning bosqichlari va tarzini ifodalovchi fe‘l” [16:61] dir. Shu sababli ko‘makchi fe’llarni “harakat tarzi shakllari” atamasi bilan ham yuritiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, ingliz tilidagi modal fe’l va infinitiv birikuvini fe’l+fe’l birikuvi sifatida qarash biroz g‘aliz. Chunki bu birikuvda hokim-tobelik munosabti mavjud emas. Qolaversa, bunday birikuv natijasida hosil bo‘ladigan birlikni hosil qiluvchi a’zolaridan har biri alohida so‘roqqa javob bo‘lmaydi. Bunda modal fe’l shunchaki asosiy fe’lning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklaydi xolos.

Ingliz tilida ikki fe’lning birikuvi har doim ham hokim-tobe munosabatni yuzaga chiqaravermaydi. Ba’zan ikki fe’l o‘zaro teng munosabatda birikishi mumkin. Bunda o‘zbek tilida bo‘lganidek, uyushiq bo‘laklar hosil bo‘ladi. Masalan, *She danced and sang* gapida ikki fe’l o‘zaro teng maqomda birikkan. Bunday maqomdagi fe’llar o‘zaro bog‘lovchilar vositasida birikadi. Bunday birikuvlar natijasida so‘z birikmasi yoki gap hosil bo‘lmaganligi tufayli tadqiqotimizda ularni tekshirishni lozim topmadik.

Ingliz tilida fe’lni fe’lga biriktiruvchi vositalarning o‘rganilishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, fe’lning boshqa fe’lga birikishi uchun ulardan biri xoslanishi, muayyan shaklga kirishi talab etiladi. Masalan, infinitiv, gerundiy kabilar fe’lning ot turkumiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi natijasida ularning boshqa fe’lga birikish imkoniyati paydo bo‘ladi. Iboraviy fe’llar esa predloglar (ba’zan ravishlar) vositasida boshqa fe’lga birikadi.Nazarimizda, modal fe’llar esa o‘z mustaqil ma’nosiga ega bo‘lmaganligi, asosiy fe’lga muayyan ma’no munosabatlarini qo‘shish uchungina xizmat qilganligi sababli modal fe’l + infinitiv bog‘lamini to‘laqonli birikma sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Adabiyotlar:

1. Качалова К., Израилевич Е. Практическая грамматика английского языка. – Киев: Методика, 2003. – – 364 с.
2. Аксененко Б. Предлоги в английском языке. – Москва: Издательство литературы иностранных языков, 1956. – 320 с.
3. Broendal V. Theorie des prepositions. – Copenhague: Llunksgaard, – 1950. – 145 p.
4. Brut J. Exercises on English prepositions and adverbs. – London: Nelson, 1969. – 135 p.
5. Curme G. A grammar of the English language in three volumes. – London: Heath & Co, – 1931. – 616 p.
6. Рейман Е. Английские предлоги: значения и функции. Дисс. докт. филол. наук. 1984. – Ленинград. – 432 с.
7. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.132. (– 416 b.)
8. Рокунова Н., Слугина О. основные подходы и принципы обучения английским фпазовым глаголам студентов наязыковых специальностей // Вестник ПНИПУ. № 4. – С. 172-180.
9. Столянков Ю. Английские фразовые глаголы в двуязычной ситуации. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2010. – 141 с.

10. Nist J. A Structural History of English. – New York: St. Martin Press, 1966. – 426 p.
11. Smith L. Words and idioms: studies in the English language. – London: Constable and Co, 1925. – 299 p.
12. Исмоилзода Э. Грамматические особенности конструкций с модальными глаголами в таджикском и английском языках. Дисс. канд. филол. наук. – Душанбе. 2011. – 125 с.
13. Вдовина М. Взаимодействие категорий модальности, времени и вида в английских предложениях с модальными глаголами. Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург. – 126 с.
14. Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The Evolution of Grammar: Tense, Aspect and Modality in Languages of the World. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – 398 p.
15. Collins P. Modals and Quasi-modals in English. – Amsterdam: Rodopi, 2009. – 193 p.
16. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan. – 144 b.

